

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON  
MUNOSABATI

**Qilichova Guljahon A'zamjon qizi**  
*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning tabiat va inson o'rtasidagi munosabati bayon etilgan. Yozuvchining "Ot egasi", "Omon ovchining o'limi" hikoyalari tahlil qilingan. Qolaversa, yozuvchi uslubi haqida gapirib ham o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Surxon muhiti, ot egasi, Omon ovchi, tabiat va inson munosabatlari, yozuvchining uslubi.*

Adabiyot—so'z san'ati! Aynan so'z orqali insonni, tabiatni, hayotni badiiy talqin qilgan, adabiyot dunyosida o'z o'rniga ega bo'lgan, kitobxon mehrini qozongan adib Shukur Xolmirzayevdir. Yozuvchining asarlarida bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos xususiyatlari ifodalangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchining Surxondaryo viloyati Boysun tumanida turfa tabiatli kishilar hayoti jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurashlar o'zining badiiy talqinini topadi. Shukur Xolmirzayev ijodiyotining o'ziga xos xususiyati shundaki, u milliy hikoya janrini Abdulla Qahhordan keyin yuqori cho'qqiga ko'tardi. Shukur Xolmirzayev asarlari tilining soddaligi, hamma uchun bir xil tushunish imkoniyatining mavjudligi, tabiat va insonning chambarchas uyg'unligi, jimjimadorliklardan holiligi bilan boshqa ijodkorlar asarlaridan keskin farq qiladi. Va shuning uchun hamma barcha o'quvchilar uchun birday manzur bo'lgan asarlar qatoridan joy oladi. Nazar Eshonqulning "Ham hayotda, ham adabiyotda shaxs edi" maqolasida yozuvchi Shukur Xolmirzayev haqida shunday deydi: "Shukur akaning hikoyalari oddiy dardning ulug'vor ko'rinishlaridir. Shukur akaning aksar qahramonlari oddiy kun kechirayotgan, bir qarashda, vatanga, millatga, umuminsoniyatga daxli yo'q odamlardir. Ammo yozuvchining nigohi shu darajada o'tkirki, u ana shu daxlsizlik ortida yotgan millatga, vatanga, bani-basharga daxldor dardlarni ko'ra biladi, tasvirlay oladi, ko'rsatib bera oladi. Davr va zamon qancha jimjimalarga o'ramasin, uni qanchalik moddiylashtirmasin, "robotlashtirmasin", Shukur Xolmirzayev nigohi uni—do'zaxiy jimjimalar ichidagi insonni, uning dardini ko'ra oldi, bu dardni Abdulla Qahhor uslubidan farqli ravishda ko'rsatib bera oldi". Shukur Xolmirzayevni XX asr o'zbek adabiyotining ulkan yutuqlaridan biri deb aytish va uning hikoyalarini, janr imkoniyatlarini kengaytirgan maktab deyish mumkin. Fikrlarimizning isboti sifatida biz ijodkorning "Ot egasi", "Omon ovchining o'limi" hikoyalarining tahlilini keltirib o'tamiz. "Ot egasi" hikoyasi inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning yorqin namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu asardagi Inod polvonning tog' bag'rida yashashi, insonlar va jonivorlarga nisbatan bir xil muomalada, ya'ni hamma mavjudotlarning xudoning ne'mati va yaratgan mo'jizalaridan bir deb hurmat qilishi kitobxonda qiziqish uyg'otadi. Inod bir chekka qishloqda yashovchi oddiy muallim. Uning hayotida unchalik ko'p qimmatli narsalari yo'q. Ya'ni sanoqli. Inod butun borlig'i deb uch narsani biladi bular: serdaraxt qishlog'i, qishloqdagi yagona maktab

va qorabayir oti. Ular Inodning butun hayotini tashkil qiladi. Uning oilasi: xotini va ikki farzandi yonib ketadi. Shundan so'ng Inodning ruhiyatini tushkunlik egallaydi. Oilasidan ayrilganligiga qaramay, maktabda o'qituvchilik qilayotgan va dardini ichida yutgan insonning alamli hayoti hikoyada juda katta mahorat bilan tilga olinadi. Bu inson garchi shuncha dardni ichida saqlasa-da, jamiyatga, insonlarga o'z dardini, g'am-u tashvishini ko'rsatmaydi, insonni tabiatni ayblamaydi. Inod hikoyada o'z ishini biladigan, og'ir vazmin, odamovi, ochiqko'ngil inson sifatida gavdalanadi. Uni xo'mraygan odamovi bo'lishiga qaramasdan maktabdagi barcha bolalar yaxshi ko'radi. Chunki u bo'sh vaqtda bolalarga ot minishni va boshqa foydali narsalarni o'rgatadi. Uning birovga hech yomonligi yo'q tinchgina yashardi. Ammo Egamberdining uning otiga qiziqib qolishi vaziyatni o'zgartiradi. Uning ochko'zligi, shu otni olmaguncha tinchimasligi o'sha paytdagi sovet tuzumining ifodasi sifatida gavdalanadi. Bu hikoya yozilgan paytida (1971-yil) hukumatga qarshi biror gap gapirish juda xavfli edi. Shu sababdan Shukur Xolmirzayev o'sha tuzumning nohaqliklarini Egamberdi obraziga yuklaydi. Bu obraz juda ochko'z, istaganini olmaguncha qo'ymaydi. O'z manfaati uchun oddiy o'qituvchining sigirini oladi, lekin bu ham uning ichidagi otga bo'lgan ishtiyoqini so'ndira olmaydi. Odam bolasi shunday. Umidlarim so'ndi, barchasi tamom bo'ldi degan paytda Allohning inoyati bilan yana yashashga umid uyg'onadi. Yana qayta yashashni boshlaydi. Xuddiki bu tabiat bilan sodir bo'ladigan hodisaday. Ya'ni tabiat ham qahraton qish kelib endi hammasi tugadi degan bir paytda bahor kelgani kabi...

Adibning yetuk hikoyalardan biri "Omon ovchining o'limi" hikoyasi hisoblanadi. Bu hikoyada yuqoridagi hikoyaning aksi bo'lgan personaj bo'lmish Omon ovchi tasvirlanadi. Omon ovchi tabiatga, insoniyatga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'ladigan, hatto o'z oilasiga ham mehr his qilmaydigan inson sifatida aks ettiriladi. Asarda uning oilasiga oddiy narsalar sifatida qarashi, qishlog'ida hech kim qolmasa ham, o'z oilasini shunday qiyin sharoitlarida, o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun ayamasdan olib qolishi, oqibatda bir oilaning tanazzulga yuz tutishini mahorat bilan tasvirlangan hisoblanadi. U "gunoh", "qon tutadi", "ko'z tegadi" degan tushunchalardan yiroq. Uning bunday harakatlari Yaratgandan ham yiroq ekanligini, sabrsiz va shafqatsiz inson ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Turmush o'rtog'ining qishloqdan ketish kerak ekanligini aytganda ham unga jerkib javob berishi, farzandini o'ziga o'xshab ovchi qilib tarbiyalashga urinishi uning naqadar bemehr inson ekanligini aniq ko'rsatib beradi. Lekin Yaratganning hammaga atagani borligini, taqdiri azalning bo'lishi va o'lim haq ekanligini keyinchalik o'limi oldidan ham tushunib yeta olmaydi. Chunki uning oyog'i sinishi ham bir belgi edi. Ya'ni unga bu yuborilgan dard, qiynoqlar xudoning irodasi bilan bo'layotganini tushunish va anglash uchun berilganini u o'z tasavvuriga sig'dira olmas edi. Hikoyada oilasiga mehr bera olmagan insonning tabiatga qanday qilib mehr berishi mumkin degan savol tug'iladi. Bu ritorik so'roqning esa javobi "Aslo!". Chunki Vatan degan tushuncha Ona deb atalmish zot bilan bog'lanadi. Vatan bu yer, ostona demakdir. Demak, inson tabiat, ona tabiat bilan, ona tabiat esa inson bilan tirik hisoblanadi. Ulardan biriga shafqatsizlik qilish esa, o'z-o'zidan ularning ikkinchisiga ham shu ishni qilish demakdir.

Bu hikoyalar bilan tanishganimizdan so'ng ijodkorning uslubi va mahoratiga tan bermasdan iloji yo'q ekanligini anglaymiz. Chunki bunday yo'nalishda, ya'ni inson va tabiat

o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va mutanosiblikni sodda, xalqchil, ravon, kitobxon uchun tushunarli qilib asar yozishning o'zi ham adibdan katta kuch, iste'dod va mahorat talab etadi. Bularning barchasi esa Shukur Xolmirzayev va uning asarlarida mujassamlashgan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayevning "Yur, tog'larga ketamiz" hikoyalar to'plami—Toshkent: "Pharos Ambition" nashriyoti, 2022.
2. Nazar Eshonqul. "Ham hayotda, ham adabiyotda shaxs edi" maqolasi.